



*Tarjimon Abdurahmon Akbar*

# Finist sorlochinning pati




*Русская сказка в обработке  
О. Пановой*

# Перышко Финист ясный СОКОЛ



“DAVR NASHRIYOTI”  
Toshkent – 2012

336335



**В**ир savdogarning uchta qizi bor ekan. Ikki katta qizi kun bo'yi yasan-tusan qilib, ko'zgu qarshisidan ketmas, kenjasi bo'lsa, kamtar va mehnatsevar ekan. Savdogar savdo ishlari bilan shaharga jo'naydigan bo'lib qolib, qizlaridan: «Sizlarga qanday sovg'alar olib kelay?» – deb so'rabdi. Kattalari chiroyli ko'ylaklar olib kelishini iltimos qilishibdi, kenjasi esa: «Finist sorlochinning patini olib keling», – debdi.

Otasi safardan qaytibdi. U ikkita qiziga tayinlagan sovg'alarini olib kelibdi, Finist sorlochinning patini hech qayerdan topa olmabdi. Savdogar keyingi gal ham shaharga jo'nab, katta qizlariga ipak liboslar keltiribdi, kichkinasiga hech narsa olib kelmabdi. Savdogar uchinchi marotaba safarga jo'nabdi. Katta qizlariga tilla isirg'alar sotib olibdi. Kenjasining aytganini yana topa olmabdi. U xafa bo'lib uyiga qaytayotgan ekan, yo'ldan quticha ko'targan bir qariya chiqib qolibdi. Qutichaga Finist sorlochinning pati solingan ekan. Savdogar qariyadan o'sha patni sotib olib, uyiga shoshilibdi.



**Ж**ил-был на свете купец, и было у него три дочери. Старшие целыми днями наряжались да перед зеркалом вертелись, а меньшая была скромная и трудолюбивая. Собирается раз отец по торговым делам в город и спрашивает у дочерей, что им в подарок купить. Старшие попросили красивые платья, а младшая – пёрышко Финиста ясна сокола.

Вернулся отец, привёз двум дочерям подарки, а пёрышко Финиста ясна сокола нигде не нашёл. Снова поехал в город купец, привёз старшим шёлковые платки, а младшей опять ничего. Вот отправился он в город в третий раз. Купил двум сёстрам золотые серьги, а подарка для младшей так и не смог отыскать. Едет назад печальный, и вдруг навстречу ему идёт старичок и несёт коробочку, а в ней – пёрышко Финиста ясна сокола. Упросил купец старика продать пёрышко и поспешил домой с подарками.














Kechqurungi ovqatdan so'ng, hamnia uxlagani yotganda, kenja qiz o'z xonasiga kirib qutichani ochibdi. Shunda Finist sorlochinning pati pirillab uchib, polga tushibdi-yu, qizning qarshisida go'zal shahzoda paydo bo'libdi. Ular shirin suhbat qurishibdi. Katta opalari bundan xabar topib, kenja qiz yotoqxonasi eshigini taqillatishibdi. Shahzoda polga tushib, yana patga aylanib qolibdi. Kenja qiz derazani ochib, patni toza havoda uchib, sayr qilib yurishi uchun qo'yib yuboribdi.

Opalari xonaga kirishib, kichkina singlisidan boshqa hech kimni ko'rishmabdi. Keyingi kuni kechasi Finist sorlochin yana kenja qizning xonasiga uchib kelibdi. Qizning katta opalari ularning tovushlarini eshitishib, otalarining oldiga yugurishibdi.

– Otajon, singlimizning xonasiga har kecha kimdir kirib, u bilan suhbatlashadi! – debdi qizlar.

Savdogar kenja qizining xonasiga kirganida shahzoda patga aylanib, tashqariga uchib chiqib ketgan ekan.



После ужина, когда все пошли спать, младшая дочь открыла в своей горнице коробочку. Тут пёрышко Финиста ясна сокола выпорхнуло, коснулось пола, и явился перед девицей прекрасный царевич. Стали они ласково беседовать. Услыхали старшие сёстры, стучатся к младшей в дверь, а царевич ударился об пол – и снова сделался пёрышком. Красная девица открыла окошко и выпустила его в чистое поле – полетать-погулять до поры до времени.


Вошли сёстры в горницу – а там никого, кроме младшей сестры. На следующую ночь прилетел к ней снова Финист ясный сокол. Услышали старшие сёстры их голоса, побежали к отцу и говорят:

– Батюшка! У нашей сестры кто-то по ночам бывает и с нею речи ведёт!

Отец пошёл к меньшей дочери, а царевич уж давно обратился пёрышком и улетел.







Savdogar katta qizlarining qiliqlaridan jahli chiqib, kichkina qizining ustidan shikoyat qilishlarini taqiqlabdi.

Uchinchi kuni niyati buzilgan opalari kenja qiz yashaydigan xonaning derazasiga o'tkir pichoqlarni qoziqqa o'xshatib o'rnatib qo'yishibdi. Tunda yana Finist sorlochinni uchib kelibdi. U qancha harakat qilmasin, oynadan ichkariga kira olmabdi. Qanotlarini yaralaganini qolibdi, xolos.

Ertalab uyg'ongan kenja qiz derazaga o'tkir pichoqlar o'rnatilganini, ulardan qon tomchilayotganini ko'ribdi.


Ko'ribdi-yu:

– Opalarim mening aziz do'stimni adoyi tamom qilishibdi-da, – deb ko'zlaridan duv-duv yosh to'kibdi.

U Finist sorlochinni izlab topish uchun uyidan bosh olib chiqib ketibdi. Boshi oqqan tomonga ketaveribdi-ketaveribdi. Oxiri oldidan bir uycha chiqibdi. Uycha eshigini oqko'ngil kampir ochib, uxlash uchun uni ichkariga chorlabdi. Ertalab qizni mehmon qilibdi. So'ng unga:







Рассердился купец на старших дочерей и запретил им на младшую жаловаться.

На третий день замыслили сёстры недоброе: набрали острых ножей и сделали из них частокол у окошка красной девицы.

Ночью прилетел Финист ясный сокол, но как ни бился – не смог влететь в окно, только крылья себе изранил.


Проснулась наутро девица, видит – на окне острые ножи, а с них кровь капает. Тогда заплакала она горько:

– Знать, сестрицы сгубили моего друга милого!

Собралась она и ушла из дому Финиста ясна сокола искать. Долго шла куда глаза глядят и пришла к избушке. Открыла ей добрая старушка и пустила на ночлег. А наутро накормила, напоила и говорит девице:







– Mana senga kumush g'altak, mana tilla urchuq, uni yigirsang – oltin ipli bo'lasan. Bu senga hali asqotadi. Endi mening opamnikiga bor, – debdi.

Kampir yo'lga g'altakni tashlab qizga uning ortidan yurishni tayinlabdi. Qiz g'altakning ortidan yura-yura kampirning opasi yashaydigan uychaga yetibdi. Bu kampir ham go'zal qizga uyidan joy beribdi. Tong otishi bilan unga kumush tovoq va oltin tuxum berib, to'ng'ich opasinikiga jo'natibdi.

Qiz yana yo'lga ravona bo'libdi. Uychaga yaqinlashib, uni taqillatibdi. Uychadan qarib qolgan kampir chiqib, qizdan:

– Yo'l bo'lsin, qizim, qayoqqa ketayapsan? – deb so'rabdi.

Qiz:

– Finist sorlochinni izlayapman, – debdi.

– Uni ortga qaytarish senga qimmatga tushmasaydi. U hozir dunyoning bir chetidagi mamlakatda o'sha yurtlik malikaning qo'lida tutqunlikda yashayapti. Malika Finistga turmushga chiqmoqchi, hozircha uni zindonda uxlatib tutib turibdi, – debdi kampir.

– Biroq qayg'urma, – debdi kampir so'zida davom etib. – O'zim senga yordam beraman.



– Вот тебе серебряное донце, золотое веретёнце: станешь пряжу прясть – золотая нитка потянется. Это тебе пригодится. А теперь ступай к моей сестре.

Бросила старушка на дорогу клубочек и наказала вслед за ним идти. Пошла девица за клубочком – долго ли, коротко ли, прикатился он к избушке, где жила старухина сестра. Приютила она красну девицу, а поутру дала ей серебряное блюдо, золотое яичко и велела идти к самой старшей их сестре.

Вновь отправилась девица в путь-дорогу. Пришла к избушке, постучалась. Вышла старая-старая бабушка и спрашивает:

– Куда путь держишь, голубушка?

– Ищу я Финиста ясна сокола.

– Ох, трудно будет тебе его вернуть! Он теперь в тридесятом царстве, в плену у тамошней царевны. Собирается царевна замуж за Финиста, а пока держит его в темнице и поит сонным зельем. Но не печалься, я тебе помогу.














Mana bu sovg'am tilla kergi chambarak bilan ignani ol. Kergini qo'lingga ush-lashing bilan ignaning o'zi naqsh tika boshlaydi.

Kampir qizga kergi chambarak bilan ignani bera turib:

– Endi dunyoning chetidagi mamlakat qasriga to'g'ri kirib boraver. Malika biz senga sovg'a qilgan g'aroyib narsalarni ko'rib, sendan ularni sotib olmoq-chi bo'ladi. Sen hech narsa olmasdan undan faqat Finist sorlochinga bir qarab qo'yishga ruxsat so'ra, – debdi.

Aytilgan so'z – otilgan o'q. Sohibjamol qiz dala va o'rmonlardan o'tib o'sha – dunyoning bir chetidagi podsholikka kirib boribdi.

Qasr darvozasini taqillatib, ichkariga kirib, ishga yollanibdi: pechka yoqibdi, suv tashibdi, tushlik tayyorlabdi.

Malika uning ishlarini ko'rib, mehnatsevarligi, oqko'ngilligi, chaqqon va udd-aburonligidan quvonibdi.

Go'zal qiz yumushlarini bajarib bo'lgach, qo'liga kumush g'altak va tilla urchug'ini olib, ip yigira boshlabdi. Yigirgan ipi oddiy emas, toza tilladan ekan.



Вот тебе в подарок золотые пальцы да иголочка: ты только пальцы держи, а иголочка сама узоры вышивать будет.

Дала ей пальцы с иголочкой и говорит:

– Теперь ступай в тридесятое царство прямо во дворец. Как увидит царевна дива дивные, что мы тебе подарили, так и захочет купить их у тебя. А ты взамен ничего не бери, проси только позволения взглянуть на Финиста ясна сокола.

Сказано – сделано. Через поля, через леса пришла красная девица в тридесятое царство. Постучалась во дворец и нанялась на работу: и печку топит, и воду носит, и обед готовит.

Царевна смотрит да радуется – ай да работница, и услужливая, и добрая, и расторопная!

А красная девица, покончив с работой, взяла серебряное донце, золотое веретёнце и села пряхть: прядёт, а нитка тянется не простая, а чистого золота.







Malika buni ko'rib:

– Hoy, go'zal qiz! Qo'lingdagilarni menga sot, – debdi.

– Finist sorlochinga bir marta qarashga ruxsat bersangiz, shundoq ham bera-man, – debdi qiz.

Malika rozi bo'lib: «Finistga uxlatadigan damlama ichirib uxlatib qo'ygan-man-ku, uni hech kim uyg'ota olmaydi», – deb o'ylabdi.

Go'zal qiz Finist yotgan yotoqxonaga kiribdi. O'zining aziz kishisini ko'rishi bilan yig'lab yuboribdi.

– Uyg'on, uyg'ona qol, Finist sorlochin. Menga bir qara, nahotki meni – dildosh mahbubangni unutgan bo'lsang?

Qiz Finistni uyqudan uyg'ota olmabdi. Tun shu tariqa kechibdi.

Ikkinchi kuni go'zal qiz qo'liga kumush idishini olib, unda oltin tuxumni dumalata boshlabdi: har dumalatganda idish ichida boshqa oltin tuxum paydo bo'lib qolaveribdi. Buni ko'rib malikaning ko'zlari chaqnab ketibdi.

– Qo'lingdagi ovunchoqlaringni menga sot, – debdi u qizga.

– Yana bir marta Finist sorlochinga qarashimga ruxsat bersangiz, olavering, – debdi qiz.



Увидала это царевна и говорит:

– Ах, красная девица! Не продашь ли мне свою забаву?

– Отдам, если позволишь взглянуть на Финиста ясна сокола.

Царевна согласилась, а сама думает: «Я Финиста сонным зельем опою, никто его не разбудит!».

Пришла красная девица в спальню Финиста. Как увидела друга своего милого, так и заплакала:

– Проснись-пробудись, Финист ясный сокол! Посмотри на меня, красну девицу! Неужто ты меня забыл, друг сердечный?

А Финист спит, не разбудишь. Так и ночь прошла.

На другой день красна девица взяла серебряное блюдечко и катает по нему золотое яичко: много золотых яиц накатала!

Увидала это царевна, глаза у нее загорелись.


– Продай, – говорит, – мне свою забаву!

– Бери, если позволишь ещё разок на Финиста ясна сокола взглянуть.









Malika rozi bo'libdi. Sohibjamol qiz yana Finist sorlochin yotgan xonaga kiribdi. Biroq bu safar ham qancha yig'lab-siqtamasin, uyg'otishga harakat qilmasin, yigit ertalabgacha toshdek qotib uxlayveribdi. Uchinchi kuni sohibjamol qiz qo'liga oltin kergi chamberagi bilan ignani tutibdi. Igna o'z-o'zidan ishga tushib, g'aroyib naqshlar tika boshlabdi!

Uni ko'rgan malika:

– Sohibjamol qiz, qo'lingdagilarni menga sot. Haqiga yana bir marta Finist sorlochinning oldiga kirib, husniga to'ya qol! – debdi.

Qiz yana aziz do'sti – chuqur uyqudagi bahodir yigitni uyg'otishga harakat qilibdi. Biroq harakati zoye ketibdi. Shunda qiz yigitning yuziga egilgan ko'yi achchiq-achchiq yig'labdi. Qizning qaynoq ko'zyoshlari yigitning yonog'iga tomib, kuydiribdi, shu onda uyqudan uyg'onibdi. Yigit sohibjamol qizni tanib, xursand bo'lib ketibdi. Undan hech ajralgisi kelmabdi. Ikki yosh qizning otasinikiga qaytib kelishib, nikoh o'qittirishibdi. To'y-u tomosha qilib berishibdi. O'sha to'yda men ham bo'lgan edim.



Царевна согласилась. Пришла девица опять в спальню Финиста ясна сокола, но и на этот раз, как ни плакала, как ни будила его, он спал-почивал до утра непробудно.

На третий день сидит красная девица, держит в руках золотые пальцы, а иголочка сама вышивает – да такие узоры чудные! Загляделась царевна.

– Продай, красная девица, продай, – говорит, – мне свою забаву! А взамен пойдя полюбуйся ещё раз на Финиста ясна сокола!

Вот снова будит не добудится девица своего друга милого – крепко спит добрый молодец. Тогда склонилась она над ним и горько заплакала. Упала ему на щеку горячая девичья слеза, обожгла, и он в ту же минуту проснулся. Узнал он свою милую и так обрадовался, что не пожелал с ней расставаться. Возвратились молодые к отцу красной девицы – тут их и обвенчали, и свадьба была пышная да богатая! На той свадьбе и я был, мёд-пиво пил, по усам текло, да в рот не попало.







